

FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-05

ILK O'RTA ASRLARDA MARKAZIY OSIYO AHOLISINING
ANTROPOLOGIK VA PALEODEMOGRAFIK SHAKLLANISHI
TOSHKENT VOHASI VA JANUBIY OROLBO'YI AHOLISI MISOLIDA

Toshmurodov Ahmad Qudratovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti Etnografiya, etnologiya va antropologiya
yo'nalishi magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyo aholisining antropologik, tipologik va paleodemografik shakllanish jarayonlari ilmiy manbalar hamda antropologik materiallar asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida Toshkent vohasi, Janubiy Orolbo'yi, xususan, Mizdaxqan yodgorliklaridan topilgan kalla suyaklari va skelet qoldiqlari asosida mintaqa aholisining biologik qiyofasi, etnik tarkibi hamda demografik holati yoritilgan. Shuningdek, Markaziy Osiyo hududiga turkiy qabilalarning kirib kelishi va mahalliy aholi bilan etnik qorishuvi masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari Markaziy Osiyo xalqlarining etnik va antropologik shakllanish tarixini yoritishda muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar. Toshkent, yevropoid, Mizdaxqan, Shirinsoy, paleodemografik, deformatsiya.

Kirish. Ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo tarixida etnik, madaniy va biologik jarayonlar nihoyatda murakkab hamda serqirra tarzda kechgan davrlardan biri hisoblanadi. Bu davrda mintaqa hududida qadimdan yashab kelgan mahalliy o'troq dehqon aholisi bilan shimoliy dashtlardan kirib kelgan ko'chmanchi chorvador qabilalar o'rtasida uzoq davom etgan etnik va antropologik qorishuv jarayonlari yuz bergan. Hududda yevropoid va mongoloid irqiy belgilar turli davrlarda bir-biri bilan qorishib borgan. Natijada pomir-farg'ona, janubiy sibir, o'rta yer dengizi va boshqa antropologik tiplar shakllangan. Ayniqsa Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Sug'd, Xorazm va Yettisuv, Zarafshon va Surhandaryo hududlari ana shunday murakkab antropologik jarayonlar markaziga aylangan. Ilk o'rta asrlar aholisi antropologik va tipologik tuzilishini o'rganishda arxeologik qazilmalar davomida topilgan kalla

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-05**

suyaklari, skelet qoldiqlari va qabriston materiallari muhim ilmiy manba vazifasini bajaradi.

Asosiy qism. Antropolog olimlar ilk o'rta asrlarga tegishli aholining suyak qoldiqlarini tekshirish orqali aholining tashqi qiyofasi, bo'yi, yuz tuzilishi, bosh shakli, etnik kelib chiqishi, jismoniy rivojlanishi va hatto ayrim kasalliklarini aniqlashga muvaffaq bo'lganlar. Shu bilan birga, bosh shaklini sun'iy o'zgartirish, dafn marosimlari va turmush tarzi bilan bog'liq odatlar ham qadimgi aholining etnomadaniy xususiyatlarini yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.¹ Dastlab, Toshkent vohasi aholisining ilk o'rta asrlar antropologik va tipologik shakllanishini ko'rib chiqadigan bo'lsak, Olimlar voha hududidagi Qovunchitepa, Shirinsoy, Niyozboshtepa, Qovurdon, Tuyabo'g'iz va boshqa qabristonlardan topilgan kalla suyaklari hamda skelet qoldiqlarini o'rganish asosida aholining tashqi qiyofasi, etnik tarkibi, kasalliklari va biologik rivojlanish xususiyatlarini tiklaganlar. Ilk o'rta asrlarga kelib Toshkent vohasi aholisi antropologik jihatdan nihoyatda murakkab tarkibga ega bo'lgan. Bu yerda bir vaqtning o'zida pomir-farg'ona tipi, o'rta yer dengizi tipi va janubiy sibir antropologik tipi vakillari yashagan. Bu hol vohaning qadimdan shimoliy dashtlar bilan janubiy dehqonchilik markazlari oralig'idagi bog'lovchi hudud bo'lganidan dalolat beradi. Qovunchi madaniyati davrida Toshkent vohasi Qang' davlati tarkibiga kirgan. Antropologik materiallar qang'uy aholisi turli irqiy qatlamlar qorishuvidan shakllanganini ko'rsatadi. Skelet qoldiqlari orasida pomir-farg'ona tipiga mansub cho'zinchoq yuzli, qirrador burunli va yevropoid qiyofali odamlar ko'pchilikni tashkil etgan. Shu bilan birga mongoloid belgilarni o'zida mujassamlashtirgan janubiy sibir tipidagi kishilar ham uchraydi.²

Shirinsoy qabristonidan topilgan odam suyaklari Toshkent vohasi aholisi orasida kamida uchta antropologik qatlam mavjud bo'lganini ko'rsatadi. Bu yerda Xuroson tipiga yaqin janubiy yevropoid aholi, pomir-farg'ona tipi hamda mo'g'uloid belgilar kuchli bo'lgan janubiy sibir tipidagi kishilar birgalikda yashagan. Skeletlar orasidagi farqlar vohada biologik va etnik aralashuv kuchli bo'lganidan dalolat beradi. Niyozboshtepa qabristonidan topilgan kalla suyaklari IV–V asrlarda Toshkent vohasida yashagan dehqon aholining antropologik tuzilishini aniqlashda muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Bu yerda ikki asosiy antropologik guruh — o'rta yer dengizi tipi va janubiy sibir tipi aniqlangan. Ayrim kalla suyaklarida pomir-farg'ona tipiga xos belgilar ham uchraydi. Olimlarning fikricha, bu aholi keyingi davr o'zbek va voha

¹ T.A.Trafimova, Markaziy Osiyoning paleoantropologiyasi. Moskva, 1968.

² M.G.Levin. Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezining etnik antropologiyasi va muammolari Moskva, 1963.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-05**

tojiklari shakllanishida muhim o'rin tutgan.³ Qovurdon qabristoni materiallari esa Toshkent vohasida yashagan chorvador aholining antropologik qiyofasini aks ettiradi. Bu yerdagi skeletlarda mongoloid belgilar kuchliroq rivojlangan bo'lib, ko'z kosalarining kengligi, yuzning yassiligi va bosh shaklining yumaloqligi bilan ajralib turadi. Shu bilan birga ayrim skeletlarda yevropoid belgilar ham saqlanib qolgan. Bu esa chorvador va o'troq aholining o'zaro qorishganini ko'rsatadi. Tuyabo'g'iz atroflaridan topilgan skeletlar asosan yevropoid tipga mansub bo'lgan. Ammo ularda ham mo'g'uloid elementlar ma'lum darajada uchraydi. Bu jarayon ayniqsa Turk xoqonligi davridan keyin kuchaygan. Olimlar buni shimoli-sharqdan kelgan turkiy qabilalarning vohaga ko'chib kirishi bilan bog'laydilar. Manbalarda Toshkent vohasi aholisi kalla suyaklarining shakli haqida ham batafsil ma'lumot berilgan. Pomir-farg'ona tipidagi odamlarning bosh suyaklari asosan dumaloqroq (braxikefal), yuzlari keng va burunlari balandroq bo'lgan. Janubiy sibir tipida esa yuzlar yassiroq, ko'z kosalari kattaroq va yonoq suyaklari chiqib turgan. O'rta yer dengizi tipidagi aholida esa bosh suyaklari cho'zinchoq, yuzlari tor va nozik tuzilishga ega bo'lgan.

Toshkent vohasining ilk o'rta asr aholisi orasida bosh shaklini sun'iy o'zgartirish odati juda keng tarqalgan. Chaqaloq tug'ilgandan keyin uning boshini mato bilan mahkam bog'lash orqali kalla suyagi cho'zinchoq yoki aylana shaklga keltirilgan. Bu odat ayniqsa Qovunchi madaniyati davrida ommalashgan. Olimlarning aniqlashicha, bosh deformatsiyasi erkak va ayollarda birdek uchragan. Bu odat faqat boy yoki yuqori tabaqa vakillariga xos bo'lmagan. Chunki qabrlardagi buyumlar soni va sifati bosh deformatsiyasi mavjud yoki mavjud emasligiga qarab keskin farq qilmagan. Shu sababli tadqiqotchilar bu holatni ijtimoiy tabaqalanish belgisi emas, balki keng madaniy-an'anaviy urf deb hisoblaydilar. Skelet qoldiqlarini o'rganish orqali Toshkent vohasi aholisi orasida ayrim kasalliklar ham aniqlangan. Ko'plab suyaklarda bo'g'imlarning yeyilishi, umurtqa pog'onasidagi deformatsiyalar va mushak birikmalarining kuchli rivojlanganligi aniqlangan. Bu aholi og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanganini ko'rsatadi. Ayrim kalla suyaklarida jangovar jarohatlar va kesilgan izlar ham uchraydi. Bu esa qabilalararo to'qnashuvlar va harbiy yurishlar keng tarqalganidan dalolat beradi. Bolalar skeletlari orasida suyaklarning to'liq rivojlanmaganligi va ayrim hollarda oziqlanish yetishmovchiligi belgilari kuzatilgan. Bu esa ilk o'rta asrlarda bolalar o'limi yuqori bo'lganini ko'rsatadi. Ayollar skeletlarida esa tos suyaklarining deformatsiyasi va umurtqa bosimlari ko'p uchraydi,

³ K.Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni, Toshkent, 2001.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-05**

bu hol ko'p tug'ruq va og'ir maishiy mehnat bilan bog'liq bo'lgan. Manbalarda Toshkent vohasi aholisi etnik jihatdan ham murakkab bo'lgani ta'kidlanadi. Qang'uylar, saklar, usunlar va keyinchalik turkiy qabilalar voha aholisi tarkibiga qo'shilib borgan. Ayniqsa Turk xoqonligi davridan boshlab mongoloid belgilar miqdori ortgan. Lekin bu jarayon mahalliy yevropoid aholini butunlay siqib chiqarmagan. Natijada aralash pomir-farg'ona antropologik tipi shakllanib, keyingi o'zbek xalqining biologik asosiga aylangan.

Olimlar Toshkent vohasini ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyodagi eng murakkab antropologik hududlardan biri deb hisoblaydilar. Chunki bu yerda shimoliy ko'chmanchi qabilalar, janubiy dehqon vohalari va sharqiy turkiy guruhlar uzoq vaqt davomida aralashib yashagan. Shu sababli voha aholisi tashqi qiyofasi, bosh shakli va biologik belgilarida turli antropologik qatlamlar birgalikda saqlanib qolgan.

Bundan tashqari, ilmiy izlanishlarimiz davomida ilk o'rta asrlardagi Markaziy Osiyo aholisining antropologik, tipologik va paleodemografik qiyofasini qayta tiklash jarayonida Janubiy Orolbo'yi, xususan, Mizdaxqan va To'qqal'a kabi qadimiy shaharlarning ilk o'rta asrlarda yashagan aholisi haqida qimmatli ma'lumotlarga ega bo'ldik. Quyida ular bilan tanishib chiqamiz. Mizdaxqan shahrining umumiy maydoni antik davrda aniqroq aytadigan bo'lsak, eramizdan avvalgi V-I asrlarda 4-6 gektarni tashkil qilgan. Bu davrda Mizdaxqanga tegishli materiallar nihoyatda kam bo'lganligi sababli, aholining soni, o'rtacha yoshi kabi qator masalalar haqida fikr yuritishning imkoni yo'q.

Ilk o'rta asrlarning III-VI asrlariga kelib, Mizdaxqan egallagan umumiy maydon 8 gektarga teng bo'lgan.⁴ O'rta umr ko'rish yoshi 29 yilga teng bo'lib, 400 yil davomida 14 avlod yashab o'tgani aniqlandi. Bir avlod umri davrida Mizdaxqanda 86 dan 257 gacha kishi yashagan. Aholi zichligi esa 2 kishidan 32 kishigacha hududlarga qarab o'zgarib turgan. Bolalar o'lim darajasi 36 foizdan yuqoriroq bo'lgan. Demak, Mizdaxqan aholisining uchdan bir qismi bolalik davridayoq vafot etganlar. Aholining 53 foizdan ko'proq qismini yosh yigit va qizlar tashkil qilganlar. Mizdaxqanning III-VI asrlar o'rtalariga tegishli qatlamlarida 55 yoshdan oshgan kishilarning suyak qoldiqlari uchramaydi. Bu davrga tegishli Mizdaxqan aholisi orasida erkaklar soni ayollar soniga nisbatan birmuncha ko'proq bo'lgan. Buning sababini aniq aytish hozircha qiyin.

⁴ Ya.G'.G'ulomov. Xorazmning sug'orilish tarixi, Toshkent, 1959.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQRISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-05**

VII-VIII asrlarda, ya'ni 150 yil mobaynida Mizdaxqanda besh avlod yashab o'tgan. Bu davrda bir avlod umri davrida 360-600 kishi yashagan. Demak, bundan oldingi asrlarda yashagan aholi soniga nisbatan bu davrda yashagan aholi soni nisbatan ko'paygan. Aholi zichligi 30-50 kishiga yetgan, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 28 yoshga teng bo'lgan. Bolalar orasida o'lim holatlari kamayib, aholining beshdan bir qismini tashkil qilgan. Mizdaxqan aholisi soniga to'xtalar ekanmiz, aholining tinimsiz jadal ravishda o'sib borganini kuzatamiz. Lekin VIII asrning ikkinchi yarmi va XII asrlar orasida shahar aholisi soni ma'lum darajada kamayganini aytib o'tishimiz lozim.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur mavzuni o'rganish orqali ilk o'rta asrlarda Markaziy Osiyoda yashagan xalqlarning biologik shakllanish jarayoni, turli etnik guruhlarining o'zaro aralashuvi hamda hozirgi o'zbek va boshqa mintaqa xalqlari antropologik qiyofasining shakllanish bosqichlarini ilmiy asosda yoritish mumkin bo'ladi. Shu jihatdan ilk o'rta asrlar Markaziy Osiyo aholisining antropologik va tipologik tuzilishini tadqiq etish nafaqat antropologiya, balki etnologiya, arxeologiya va etnik tarix uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalariga ko'ra, mintaqada pomir-farg'ona, janubiy sibir va o'rta yer dengizi antropologik tiplari keng tarqalgan bo'lib, ular o'rtasidagi biologik aralashuv ayniqsa Toshkent vohasi, Farg'ona vodiysi, Xorazm va Janubiy Orolbo'yi hududlarida yaqqol namoyon bo'lgan. Bu jarayon qadimiy o'troq dehqon aholisi hamda shimoldan kirib kelgan ko'chmanchi turkiy qabilalar o'rtasidagi uzoq davom etgan etnik aloqalar bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Mizdaxqan va unga tutash hududlar paleodemografik jihatdan tahlil qilinganda, ilk o'rta asrlarda aholi sonining asta-sekin o'sib borgan, biroq ayrim davrlarda siyosiy va ijtimoiy omillar ta'sirida kamayish holatlari ham kuzatilgani aniqlandi. O'rtacha umr davomiyligining pastligi, bolalar o'limining yuqoriligi hamda aholi tarkibida yosh qatlam ustun bo'lgani o'sha davr demografik holatining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. K.Shoniyozov. O'zbek xalqining shakllanish jarayoni, Toshkent, 2001.
2. Ya.G'.G'ulomov. Xorazmning sug'orilish tarixi, Toshkent, 1959.
3. T.A.Trafimova, Markaziy Osiyoning paleoantropologiyasi. Moskva, 1968.
4. M.G.Levin. Markaziy Osiyo xalqlari etnogenezining etnik antropologiyasi va muammolari Moskva, 1963.
5. R.H.Sulaymonov. Markaziy Osiyo paleoantropologiyasi masalalari. Toshkent, 2004.

**FAN, TA'LIM, TEXNOLOGIYA VA ISHLAB CHIQARISH
INTEGRATSIYASI ASOSIDA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI
VOLUME-3, ISSUE-05**

6. A.Asqarov. O'zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. Toshkent, 2007.
7. G.F.Debets. SSSR paleoantropologiyasi. Moskva, 1948.
8. L.V.Oshanin. Markaziy Osiyo aholisining antropologik tarkibi. Moskva, 1957.
9. V.P.Alekseev. Inson irqlarining geografiyasi. Moskva, 1974.

